F. QODIROVA

# ATROFIMIZDAGI OLAM

**Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 1-sinfi uchun darslik**

2-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

Toshkent – «ILM ZIYO» – 2013

20.1 уо 71 - Табиатни муҳофаза қилиш

UO'K 502/504-053.4
KBK 74.262.0
Q 53

*Taqrizchilar:*

**U. FAYZIYEVA** – A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI professori;
**O. QODIROV** – Andijon viloyatidagi 17-maxsus kar bolalar maktabining o'qituvchisi;
**U. ABDULLAYEVA** – Buxoro viloyatidagi 123-maxsus kar bolalar maktabining o'qituvchisi.

## Shartli belgilar

 — og'zaki ayting va o'qing

 — yaxshi

 — qo'l bilan ayting

 — yomon

 — ko'rsating

 — savollarga javob bering

 — kesma harflardan tering va yozing

 — bajaring va yodda tuting

Ю 42136
4 gl

ISBN 978–9943–16–141–2

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y.

2013/[illegible]
A
10402
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

# ONA-VATAN – O'ZBEKISTON



# MENING MAKTABIM



# *1-dars.* ASSALOMU ALAYKUM!




Assalomu alaykum!

Vaalaykum assalom!

Assalomu alaykum! – Vaalaykum assalom!

## *2-dars.* TURING. O‘TIRING



Ali

turing

Ali turdi



Ali

o‘tiring

Ali o‘tirdi



Omina

turing

Omina turdi

Omina
Ali
turdi

# KELING. KIRING



Keling

Ali keling

Ali keldi



Kiring

Bola kir**di**
Men kir**dim**

Ali — kel / kir — **di**

Men

Sen

U

# CHIQING



Chiqing

Ali chiq**di**

Men chiq**dim**

MEN
SEN KIR DIM
U DING
DI

ki r **d i m**

Men

MEN
SEN KEL DIM
U DING
DI

kel**ding**

Sen

MEN
SEN CHIQ DIM
U DING
DI

chiq**di**

U

# 3-dars. OLING. BERING

 Oling





 Bering



  ni oling  ga bering

  ni oling  ga bering

Men
Sen
U

 **ni**  **ga** ber

**dim**
**ding**
**di**

# QO‘YING



 Qo‘ying



Omina olmani qo‘ydi.

  ni  ga qo‘y**di.**

  ni  ga qo‘y**di.**

Men  ,  ni  ga qo‘y**dim.**

Sen  ni  ga qo‘y**ding.**

U ? ni ? ga qo‘y**di.**

# KO‘RSATING

 Ko‘rsating





Omina kitobni ko‘rsating.

,  ni

,  ni







ni

ko‘rsating

Men . . . ni ko‘rsat**dim.**

Sen . . . ni ko‘rsat**ding.**

U . . . ni ko‘rsat**di.**

## TAKRORLASH

### Turing

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | tur | ding |
| U | | di |

### O‘tiring

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | o‘tir | ding |
| U | | di |

### Oling

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | ol | ding |
| U | | di |

### Bering

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | ber | ding |
| U | | di |

### Qo‘ying

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | qo‘y | ding |
| U | | di |

### Ko‘rsating

| | | |
|---|---|---|
| Men | | dim |
| Sen | ko‘rsat | ding |
| U | | di |







Ali turdi. Ali o‘tirdi. Omina olmani berdi.

# *4-dars.* O'QITUVCHI. TARBIYACHI. O'QUVCHI

O ' q i t u v c h i



SALIMA OPA – o'qituvchi.



T a r b i y a c h i

NAIMA OPA – tarbiyachi.

O'quvchi



Men

Sen — o'quvchi — **man**, **san**

U

Men 1-«A» sinfida o'qiyman.

## *5-dars.* KUN TARTIBI. KUNNING BIRINCHI YARMI



Uxlayapti

Omina uxlayapti.

Uyg'ondi





Omina uyg'ondi.





O'rnini to'grilayapti.

Omina o'rnini to'g'rilayapti.

Badantarbiya





Omina badantarbiya qilyapti.





Yuvinyapti

Omina yuvinyapti.





Nonushta qilyapti

... nonushta qilyapti.





Kiyinyapti

Ali va Omina kiyinyapti.





Bolalar darsda.

Darsda ______ Omina darsda.





Bolalar tushlik qilyapti**lar.**

Tushlik ______

Tushlik __________da boshlanadi.

Omina
tushlik qilyapti.
Ali

# 6-dars. KUNNING IKKINCHI YARMI





Omina o'ynayapti.

O'ynayapti





Bolalar uy vazifasini bajaryapti**lar.**

Uy vazifasi



2013/134
A
104 02
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK



Omina onasiga yordam beryapti.

Yordam beryapti



Kechki ovqat

Kechki ovqat __________da boshlanadi.

Kechki sayr



Omina kechki sayr qilyapti.







Uyquga tayyorlanish

Omina uyquga tayyorlanyapti.

Tungi uyqu





Omina tungi uyquda.
Tungi uyqu__________da
boshlanadi.

Ominaning kuni
yaxshi o'tdi.

# *7-dars.* OQUV QUROLLARI




Kitob



Daftar



Ruchka



Qalam



Yelim



Chizg‘ich



O‘chirg‘ich



Qaychi




Albom



Rangli qog‘oz




Rangli qalamlar



Rangli bo‘yoqlar



Hisob cho‘plari

Bu – o‘quv qurollari.



# MENING. SENING. UNING



Meniki

Seniki

Uniki

Mening, sening, uning



Meniki

Bu mening ko‘ylagim va sochig‘im.
Ana u sening daftaring va kitobing.
Mana uning portfeli.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Daftar | meniki | Mening | daftar | im | ing | i |
| Ruchka | seniki | Sening | ruchka | m | ng | si |
| Qalam | uniki | Uning | qalam | im | ing | i |

## 8-dars. BU KIM? BU NIMA?

**Kim?**



Bobo Ota Ona Aka Singil

Bu kim?

Bu – bobo. Bu – ota. Bu – ona. Bu – aka.



Non Olma Ruchka It Sigir

Bu nima?

Bu – non. Bu – olma. Bu – it. Bu – sigir.

Kim ..., ..., ...? (ota, ona, olma, aka, non).
Nima ..., ..., ...? (aka, olma, singil, ruchka, non).

## OILA



**Bu oila**

Bu mening oilam. Bu mening dadam, onam, akam va men. Dadam o‘qiyapti, onam tikyapti, singlim dam olyapti, men rasm ko‘ryapman.

Ota, ona, aka, singil.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Mening | dada | m, | ng, | si |
| Sening | ona | m, | ng, | si |
| Uning | aka | m, | ng, | si |

# 9-dars. ISM ☐☐☐

 

Sening isming nima?

Mening ismim Omina. Seniki-chi?

Mening ismim Ali.
Otangning ismi nima?

Otamning ismi Usmon.

Onangning ismi nima?
Onamning ismi Oysha.

Bobomning ismi Qodir. Buvimning ismi Halima. Akamning ismi Ahmad. Ukamning ismi Oybek.

O‘qituvchining ismi ... . Tarbiyachining ismi ... .

Bu
- Olim va ☐ ☐ ☐ m a
- Lola va ☐ l ☐
- Qodir va O ☐ ☐ ☐ a
- Naima va S ☐ b ☐ r
- Salima va F ☐ r ☐ z ☐

# 10-dars. FAMILIYA

Familiya





Sening familiyang nima?

Meniki Majidova.
Uning familiyasi nima?
Karimning familiyasi nima?

Hikoyatniki Salimova.

Familiyam Qodirov.
Seniki-chi?

Abdumajidov.
Yo‘ldoshev.
Hikoyatniki-chi?

Bu – Sabina.
Uning familiyasi Yo‘ldosheva.
Uning dugonasi Bonu.
Bonuning familiyasi Usmonova.





Bu – Olim.
Uning familiyasi Salimov.
Uning do‘sti Usmon.
Usmonning familiyasi Qodirov.



Bu – otam.
Otamning ismi Usmon.



Bu – onam.
Onamning ismi Kimyo.



Bu – akam.
Uning ismi Anvar.



Bu – ukam.
Uning ismi Aziz.



Bu – singlim.
Uning ismi Umida.

## Bu Salimovlar oilasi.

Bu kim? Bu Olimning otasi. Uning ismi ... .
Bu kim? Bu Lolaning onasi. Uning ismi ... .
Lolaning onasi Omina. Olimning otasi Tolib.
Olimning onasi kim? Lolaning otasi kim?

Mening onam ... . Sening onang ... . Uning onasi ... .
Mening otam ... . Sening otang ... . Uning otasi ... .

## *11-dars.* MAKTAB HOVLISI



### Bu bizning maktab

Bizning maktab katta va chiroyli. Uning binosi 4 qavatli. Men 1-«A» sinfda o‘qiyman. Bizning sinfxona keng va yorug‘. Bizning sinfda 12 nafar o‘quvchi o‘qiydi. Sinf rahbarimiz Fayziyeva Ubayda. Men a’lo baholarga o‘qiyman.

1. Siz nechanchi sinfda o‘qiysiz?
2. Sizning maktabingiz necha qavatli?

Men ... ... da o‘qiyman. Bizning o‘qituvchimiz ... ... .

# *12-dars.* SINF XONALARI




Bu sinf xonasi. U yerda dars bo'ladi.

## MEHNAT XONASI



Bu mehnat xonasi. U yerda mehnat darsi o'tiladi.

## RITMIKA XONASI







Bu ritmika xonasi. U yerda o'quvchilar musiqa tinglashadi, ashula aytishadi va raqs tushishadi.

## YAKKA MASHG'ULOT XONASI



Bu yakka mashg'ulot xonasi. U yerda o'quvchi tovushlarni eshitadi va talaffuz qilishga o'rganadi.

## RASM XONASI



Bu rasm xonasi. U yerda o'quvchilar rasm chizishadi.

## KUTUBXONA



Bu maktab kutubxonasi. U yerda qiziqarli kitoblar ko'p.

## MAKTAB ZALI



Bu maktab zali. U yerda tadbirlar o‘tkaziladi.

## KOMPYUTER XONASI



Bu kompyuter xonasi. U yerda o‘quvchilar turli topshiriqlar bajarishadi.

## SPORT ZALI



Bu sport zali. U yerda o'quvchilar sport bilan shug'ullanadilar.

## OSHXONA



Bu oshxona. U yerda o'quvchilar ovqatlanadilar.

Maktabimizda ..., ..., ..., ..., ... xonalari bor.
Oshxonada ____________, sport zalida ____________.

# *13-dars.* YOTOQXONA





Bu yotoqxona. U yerda o‘quvchilar dam olishadi.



Karavot



Yostiq



Yostiq jildi



Kiyim javoni



Ko‘rpa jildi



Ko‘rpa



Choyshab

| | | | |
|---|---|---|---|
| | mening | | im |
| Bu | sening | choyshab | ing |
| | uning | | i |

# *14-dars.* YUVINISH XONASI



Bu yuvinish xonasi. U yerda o‘quvchilar yuvinishadi.



Jo‘mrak



Tish cho‘tkasi




Tish pastasi



Sochiq



Atir sovun



Shampun



Taroq



Oyna

# YUVINISH QOIDALARI

Ali uyqudan turib yuzini yuvadi.





Ali yuvinganda (1), (2), (3), (4) larni bajaradi.




Qo‘lini yuvadi




Tishini yuvadi




... .




Sochini taraydi

1. Ali (3) da nima qiladi?
2. Siz qanday tartibda yuvinasiz?

Yuvinish vositalarini yozing.

# *15-dars.* FASLLAR

Bahor



Yoz



Kuz



Qish



# *16-dars.* YIL FASLLARI VA OYLARI

Mart
Aprel
May



Mart, aprel, may – bahor oylari.



Iyun
Iyul
Avgust

Iyun, iyul, avgust – yoz oylari.

Sentabr
Oktabr
Noyabr



Sentabr, oktabr, noyabr – kuz oylari.



Dekabr
Yanvar
Fevral

Dekabr, yanvar, fevral – qish oylari.

# *17-dars.* HAFTA KUNLARI

Haftada 7 kun bo‘ladi.
Hafta dushanbadan boshlanadi.

**Oktabr**

| D | S | Ch | P | J | Sh | Y |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
| 14 | 15 | 16 | 17 | 18 | 19 | 20 |
| 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 |
| 28 | 29 | 30 | 31 | | | |



1. Dushanba
2. Seshanba
3. Chorshanba
4. Payshanba
5. Juma
6. Shanba
7. Yakshanba

| KECHA | BUGUN | ERTAGA |
|---|---|---|
| **8- oktabr**<br>**Seshanba**<br> | **9- oktabr**<br>**Chorshanba**<br> | **10- oktabr**<br>**Payshanba**<br> |

1-kun ____________ 4-kun ____________
2-kun ____________ 5-kun ____________
3-kun ____________ 6-kun ____________

Yakshanba dam olish kuni.

## *18-dars.* KUZ FASLI

Kuz faslida havo tez-tez o'zgarib turadi.

(1) – Bulut. Kuzda havo bulut bo'ladi.

(2) – Shabada. Kuzda shabada esadi.

(3) – Shamol. Kuzda shamol bo'ladi.

(4) – Chaqmoq. Kuzda chaqmoq chaqadi.

(5) – Yomg'ir. Kuzda yomg'ir yog'adi.

(6) – Sel. Kuzda yomg'ir ko'p yog'sa sel bo'ladi.










Bulut    Shabada    Shamol










Chaqmoq    Yomg'ir    Sel

## 19-dars. KUZGI HOSIL BAYRAMI

Bizning maktabimizda «Hosil bayrami» bo'lib o'tdi. Bu bayramda kuzda pishib yetilgan mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarining hosili namoyish etiladi. Bayramga mahalladan dehqon Yo'ldosh bobo keldi. U bizni hosili bilan mehmon qildi. Ayniqsa, tarvuz va qovun juda mazali edi.





Bayramga keltirilgan hosillardan maktab oshpazi Hasan aka chiroyli shakllar tayyorladi. O'z hosilidan yasalgan bezaklarni ko'rib Yo'ldosh bobo quvonib ketdi.





Hosil bayrami qanday bayram va unda nimalar namoyish etiladi?

Dehqon bobo nimadan xursand bo'ldi?

## 20-dars. ISSIQ. SOVUQ

Havo issiq.



Havo sovuq.





Bugun havo issiq.



Bugun havo sovuq.

Fasllarga qarab havo o‘zgaradi. Havo goh issiq, goh sovuq bo‘ladi. Ikki kun oldin havo issiq edi. Kecha havo iliq bo‘ldi. Bugun havo sovuq.

Kecha havo qanday edi?
Bugun havo qanday?

Kecha havo . . . . Bugun havo . . . .

Issiq narsalar: dazmol, quyosh, choy, . . . .



Dazmol



Quyosh



Choy

Sovuq narsalar: qor, muz, sovuq suv, muzqaymoq.



Qor



Muz



Muzqaymoq



Sovuq suv

Issiq narsalar: ______, ______, ______, ______.
Sovuq narsalar: ______, ______, ______, ______.

qor, muz, sovuq suv, muzqaymoq.

!

**Sovuq suv ichmang, kasal bo‘lasiz!**
**Ko‘p muzqaymoq yemang, tomog‘ingiz og‘riydi!**
**Muz yemang, tishingiz va tomog‘ingizga zarar!**
**Quyoshda ko‘p yurmang, boshingiz og‘riydi!**
**Sovuqda issiq kiyim, issiqda yengil kiyim kiying!**

# 21-dars. OSMON

Osmon bizning tepamizda joylashgan. U juda ham katta va keng. Osmonda quyosh (1), yulduz (2), oy (3) bo'ladi. Osmonda bulutlar ham bo'ladi.





1



2



3

Quyosh kunduzi chiqadi, yerni isitadi.
Oy va yulduzlar tunda chiqadi, yerni yoritadi.

Kunduzi ______________ chiqadi, yerni _________ .
Tunda ____________ chiqadi, yerni _________ .

# 22-dars. OB-HAVO BELGILARI

Bizning sinf xonada ob-havo burchagi bor. Unda ob-havo belgilari aks etgan.

1. Havo ochiq bo‘lsa,  belgisi qo‘yiladi.
2. Havo bulutli bo‘lsa,  belgisi qo‘yiladi.
3. Yomg‘ir yog‘sa,  belgisi qo‘yiladi.
4. Qor yog‘sa,  belgisi qo‘yiladi.
5. Havo juda issiq bo‘lsa,  belgisi qo‘yiladi.

## Ob-havoni kuzatish jadvali

| Hafta kunlari |  |  |  |  |  |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. Dushanba | | | | | |
| 2. Seshanba | | | | | |
| 3. Chorshanba | | | | | |
| 4. Payshanba | | | | | |
| 5. Juma | | | | | |
| 6. Shanba | | | | | |
| 7. Yakshanba | | | | | |

## 23-dars. OB-HAVONING O‘ZGARISHI

To‘rt faslda ob-havo har xil bo‘ladi. Bahorda havo iliq, yomg‘irli bo‘lib, shabada esib turadi. Quyosh chiqib, yomg‘ir yoqqanda osmonda kamalak paydo bo‘ladi. Yozda kun issiq bo‘ladi. Kuzdagi havo bahorga o‘xshaydi. Qishda esa qor yog‘ib, kunlar sovib ketadi.



Issiq



Kamalak



Shabada



Yomg‘ir



Chaqmoq



Qattiq sovuq

To‘rt faslga mos rasmni ko‘rsating.

Kamalak qachon paydo bo‘ladi?
Bahor va kuzning o‘xshash belgilari qaysilar?

Kuzda havo ________, ________ bo‘ladi.

**Chaqmoq chaqqanda yopiq joyda turing!**

# 24-dars. OZIQ-OVQATLAR



Non




Asal



Tort



Pecheniy



Qand



Shakar



Somsa

**Bu oziq-ovqatlar**

Non, asal, tort, pecheniy, qand, shakar, somsa.

Men nonushtada non, asal, pecheniy yedim.
Sen qandli choy ichding. U tort yedi.

Siz kecha nonushtada nima yedingiz?
Siz bugun nonushtada nima yedingiz?

Choyga ______, _____, _____ solsa shirin bo‘ladi.

**Shirinlikni ko‘p yeyish tishingizga zarar!**

## *25-dars.* IDISHLAR



Lagan



Choynak



Piyola



Likop



Qasqon



Chelak



Tova



Pichoq



Qoshiq



Sanchqi

### Bu idish-tovoqlar

Lagan, choynak, piyola, likop, qasqon, chelak, tova.

 da choy damlanadi.  da choy ichiladi.

,  da ovqat yeyiladi.  da suv turadi.

, ,  nima uchun kerak?

# *26-dars.* TAOMLAR



Palov



Sho'rva



Chuchvara



Lag'mon



Manti



Kabob

## Taomlar

Palov, sho'rva, chuchvara, lag'mon, manti, kabob.

Men tushlikda palov yedim. Sen tushlikda sho'rva ichding. U tushlikda manti yedi.

Siz qanday taomlarni yoqtirasiz?
Siz bugun tushlikda nima yedingiz?

Maktab oshxonasida ___ , ___ taomlari tayyorlanadi.

**Taomlarni sovitib, shoshilmasdan yeng!**

# OVQATLANISH QOIDALARI

Bugun oshxonada tarbiyachi Salima opa bizga ovqatlanish qoidalarini o‘rgatdi.



1. Ovqatlanishdan oldin qo‘lni sovunlab yuving.
2. Qo‘lingizni yaxshilab arting.



3. Dasturxonga kattalardan oldin qo‘l uzatmang.
4. Taomni shohsilmay, chapillatmasdan yeng.
5. Stol atrofida to‘g‘ri o‘tiring.
6. Ovqatlanayotganda qattiq kulmang va ko‘p gaplashmang.
7. Taomlarni maqtab, xush ko‘rib yeng.
8. Rahmat aytishni unutmang.
9. Ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng qo‘lingizni yuving.
10. Zarur bo‘lsa, stoldan kattalardan ruxsat so‘rab turing.



## 27-dars. TA'M

Ta'm yeyiladigan narsalarda bo'ladi.



1 shirin 2 achchiq 3 nordon




Shirin, achchiq, nordon narsalarni ko'rsating.

___ ta'mi shirin, ___ ta'mi achchiq, ___ta'mi nordon.

# HID



Ayrim narsalarning hidi bo'ladi:

1 → xushbo'y, yaxshi hidlar;

2 → noxush, yomon hidlar.

1



Atir




Atir sovun



Atirgul

2



Xazon



Tutun

Yaxshi va yomon hidli narsalarni ko'rsating!

Yana nimalardan yaxshi hid keladi?

**Xazonlarni yoqmang!**

## 28-dars. RANGLAR

Atrofimizda rangli narsalar ko‘p. Ranglar har xil bo‘ladi.



→ qizil rang.  pomidor qizil rangda.

→ yashil rang.  barg yashil rangda.

→ qora rang.  tufli qora rangda.

→ pushti rang.  gul pushti rangda.

→ sariq rang.  banan sariq rangda.

Qizil rangli nimalarni bilasiz? Yashil rangli-chi?

 ______ rangda,  ,  ______ rangda.

# *29-dars.* SHAKLLAR

Atrofimizdagi narsalar har xil shakllarda bo'ladi. Masalan, katta va kichkina.




doira uchburchak kvadrat oval to'rtburchak

**Bular geometrik shakllar**

 → katta doira,  → kichkina doira

 → katta uchburchak  → kichkina uchburchak

 → katta ________  → ________ oval

Katta uchburchak, doira va ovalni ko'rsating.

1. ①, ②, ③, ④, ⑤ nomini ayting.
2. Xonadagi narsalarning shakli va rangini ayting.

# 30-dars. QISH

Qish to‘rt faslning biri. Qishda havo sovuq bo‘ladi, qor yog‘adi, suvlar muzlaydi. Binolarni, daraxtlarni, yerni qor qoplaydi.





Omina, Ali va Salim issiq kiyimlar kiyib, maktab hovlisida qorlardan uchta katta dumaloq tayyorlashdi. Dumaloqlardan qorbobo hosil bo‘ldi. Qorboboning burni sabzidan, qo‘li tayoqchadan yasaldi.

1. Qishda havo qanday bo‘ladi?
2. Bolalar maktab hovlisida nima yasashdi?

____, _____, _____ qor qoplaydi. Qorboboning burni _____ dan, qo‘li ______ dan yasaldi.

## 31-dars. QISHKI O‘YINLAR

Qishda bolalar turli o‘yinlar o‘ynashadi. 1-«A» sinf o‘quvchilari qishki ta’tilda chana, sirpanchiq uchishdi, qorbobo yasashdi. Qorbo‘ron o‘ynashdi.



Asal, Bonu, Lola va Iskandar katta qorbobo yasashdi. Jamshid, Sobir, Kamol chana uchishdi. Oybek va Ahmad qorbo‘ron o‘ynashdi. Ulardan Saida qor orqasiga yashirinib oldi. Muslima va Oysha qordan quyonchaga in qurishdi. Bolalar juda xursand bo‘ldilar.

1. Asal, Bonu, Lola va Iskandar nima yasashdi?
2. Qolgan bolalar qanday o‘yinlar o‘ynashdi?
3. Siz qishki ta’tilni qanday o‘tkazasiz?

1. Oybek va Ahmad ______ o‘ynashdi.
2. Jamshid, Sobir, Kamol ______ uchishdi.
3. Muslima va Oysha __________ga ___ qurishdi.

## *32-dars.* QISHDA EHTIYOT BO‘LING!



1 Qishda yo‘llar sirpanchiq bo‘ladi. Katta yo‘l bo‘yida sirpanchiq uchish, qorbobo yasash mumkin emas.





2 Osilib turgan muzlar tagida o‘ynash xavfli!
3 Deraza oynalariga qor otish mumkin emas!

**Qishda qor va muz yemang, sirpanchiq yo‘lni kesib o‘tayotganda ehtiyot bo‘ling!**

# *33-dars.* QISHKI KIYIMLAR



Palto



Jemper



Qo‘lqop



Sharf



Telpak



Etik



Qalpoq



Qish faslida insonlar issiq kiyim kiyishadi. Issiq kiyimlar ularni sovuqdan asraydi.

Nima uchun insonlar issiq kiyinishadi? Qishda boshga nima kiyiladi? Qo‘lga-chi? Oyoqqa-chi?

Qishda boshga ____ kiyiladi.
Oyoqqa _____ kiyiladi.

Qishki bosh kiyimlarning nomini ayting.



**Qishda qulay oyoq kiyimi kiying!**
**Sovuqda bosh yalang yurmang!**

# 34-dars. O‘QUVCHINING O‘N QOIDASI

O‘quvchilar quyidagi qoidalarga rioya qilishlari kerak:

1. Darsga kech qolmaslik.
2. Darsni diqqat bilan tinglash.
3. O‘rtoqlaridan narsalarni qizg‘anmaslik.
4. Ozoda va tartibli bo‘lish.
5. Sinf xonasida yugurmaslik.
6. Sinf jihozlarini asrash.
7. Yolg‘on gapirmaslik.
8. O‘quv qurollarini ehtiyot qilish.
9. Kattalarga salom berish.
10. Uy vazifalarini o‘z vaqtida bajarish.






1. Rasmlarni izohlang. Bolalarga ism tanlang.
   Kim to‘g‘ri, kim noto‘g‘ri ish qilayotganini ayting.
2. Oilada qanday qoidalar bo‘ladi, shu haqda yozing.

# NAVBATCHI

Bizning sinf burchagimizda navbatchilar jadvali bor. Navbatchilik hafta kunlari bo‘yicha taqsimlangan. Dushanba kuni Ali va Omina, seshanba kuni Nabi va Noila, chorshanba kuni Shuhrat va Dilfuza, payshanba kuni Munira va Dilshod, juma kuni Feruza va Ulug‘bek.



Bugun dushanba. Navbatchilarga Salima yordam beryapti. Ali doskani, Omina partalar changini artayapti, Salima gullarga suv quyyapti. Sinf xonasi toza va ozoda.

Sizning sinfingizda navbatchilik jadvali tuzilganmi?
Navbatchilar qanday ishlarni bajarishadi?
Oilada qizlar qanday uy ishlarini qilishadi?
O‘g‘il bolalar-chi?

Dushanba kuni ______ va ______ navbatchi bo‘lishdi.
Omina partani ______, Salima gullarga suv ______.

Navbatchining vazifalarini sanab bering.

**Maktab jihozlarini asrang!**

## *35-dars.* UY HAYVONLARI



Ot



Sigir



Qo‘y



Echki



It



Mushuk

Ot, sigir, qo‘y, echki, it, mushuk.

Bu ot. Bu sigir. Bu ___. Bu ___. Bu ___. Bu ___.



mo‘-o‘-o‘-o‘ deydi.



ba-a-a-a deydi.



myau-u-u deydi.



me-e-e-e deydi.

# HAYVONLARGA G‘AMXO‘RLIK

Ustozimiz darsda bizga hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilishni, ularga ozor bermaslikni aytdi. Shuning uchun biz qushlarga in qurib, don sepamiz, mushuk va itlarga ovqat beramiz.








1. Rasmlarda bolalar nima qilishyapti?
2. Siz hayvonlarga qanday g‘amxo‘rlik qilasiz?

Ali mushukka _____ beryapti.
Bonu va Omina qushlarga _____ qilyapti.
Sobir va Bobur itga _______.

**Ko‘chadagi egasiz hayvonlardan ehtiyot bo‘ling! Hayvonlarga tosh otmang, ozor bermang!**

## *36-dars.* YOVVOYI HAYVONLAR



Sher



Yo'lbars



Bo'ri



Fil



Ayiq



Tulki



Olmaxon



Ilon



Maymun



Toshbaqa

Sher, yo'lbars, bo'ri, fil, ayiq, tulki, maymun, ilon.

Rasmdagi eng katta hayvon nomini ayting.

# YOVVOYI HAYVONLAR HAYOTI



Yovvoyi hayvonlar o‘rmonda: in, o‘ra, g‘or, uyalarda yashaydi. Ular go‘sht va o‘t-o‘lanlar bilan oziqlanadi.

1. Ayiq, tulki qayerda yashaydi, qushlar-chi?
2. Siz rasmdagi hayvonlarni ko‘rganmisiz? Qayerda?

«Qirol Sher» multfilmi qahramonini rasmdan toping. Sizga yoqqan yovvoyi hayvon rasmini chizing. Yovvoyi va uy hayvonlari farqini izohlang.







## *37-dars.* O‘YINCHOQLAR



**Bu o‘yinchoqlar**



Qo‘g‘irchoq



Ayiqcha



Quyoncha



Tulki



Kubiklar



Mashina

1–?

2–?

3–?

**!** Bo‘sh katakni o‘zingiz bilgan 3 ta o‘yinchoq nomi bilan to‘ldiring.

# O‘YINCHOQLAR–BIZNING DO‘STIMIZ

Bizning o‘yinxonamizda juda ko‘p o‘yinchoqlar bor. O‘yinchoqlar bilan bo‘sh vaqtimiz qiziqarli o‘tadi. Qizlar qo‘g‘irchoqlarga kiyim tikib, sochini tarashadi. O‘g‘il bolalar lego o‘ynashadi. Ular yordamida biz ko‘p narsalarni o‘rganamiz.

1. Bonu  qa ko‘ylaklar tikadi, sochini taraydi.
2. Ali va Nabi har xil narsalarni  dan terishadi.
3. Olim  dan uy qurishga qiziqadi.

Bonu o‘yinchoqlarga ____ tikadi, ____ni taraydi.
Ali va Nabi _____ dan _____, _____ terishadi.

Sizda qanday o‘yinchoqlar bor? Siz ular bilan qanday o‘yinlar o‘ynaysiz? Nima uchun o‘yinchoqlar bizning do‘stimiz?



**Quyoncha bilan tanishamiz.**
Uning ____ta qulog‘i, ___ta ko‘zi, ____ta qo‘li, ____ta oyog‘i bor. Uning rangi ____.
Quyon sabzi yeydi, tez yuguradi.

Endi Siz Ayiqcha bilan tanishing.



O‘yinchoqlarni ozoda saqlang!

# *38-dars.* MEVALAR



Shaftoli



O'rik



Olxo'ri



Olcha



Anor



Behi



Uzum



Olma



Nok



Banan



Anjir



Xurmo

Shaftoli, o'rik, olxo'ri, olcha, anor, behi, uzum, olma, nok, banan, anjir, xurmo.

Behi, banan _____ rangda. Uzum, olma, nok _____ rangda. Olcha, shaftoli, anor _____rangda.

! Dumaloq, oval, uzunchoq shaklli mevalar nomini ayting.

! **Mevalarni yuvmasdan yemang!**

# *39-dars.* SABZAVOTLAR



Pomidor



Bodring



Achchiq qalampir



Bulg'or qalampiri



Kartoshka



Sabzi



Piyoz



Sholg'om



Turp



Sarimsoq piyoz



Karam

Pomidor, bodring, achchiq qalampir, bulg'or qalampiri, piyoz, sabzi, kartoshka, sholg'om, turp, karam.

Qaysi sabzavotning ta'mi achchiq? Sabzavotlarga oid topishmoq bilasizmi?

«Sholg'om» ertagini so'zlab bering.

**Qizil sabzi ko'zga foyda, sariq sabzi bo'y o'stiradi!**

# *40-dars.* QURUQ MEVALAR









Yong'oq     Bodom     Yeryong'oq     Xandon pista



→ quruq mevalar. Ularning po'sti bo'-ladi. Po'sti qattiq bo'ladi. Uning ichida mag'izi bor. Ular juda foydali.

Yong'oq, bodom, yeryong'oq, xandon pista. Mevalarning po'sti va mag'izini ko'rsating.

Quruq mevalarning ______ bo'ladi. _______ qattiq bo'ladi. ________ ning ichida mag'izi bor.

? Quruq mevalar haqidagi topishmoqlarni bilasizmi? Yong'oq po'stidan o'yinchoq yasashni bilasizmi?

! Quruq mevalar yeyishdan oldin chaqiladi.

! **Quruq mevalarni tishingizda chaqmang!**

## 41-dars. TAKRORLASH





Biz nordon, shirin mevalar,
Rang-barangmiz qanchalar.
To‘yib olsangiz bizga,
Quvvat to‘ladi sizga.

Albom varag‘iga quyidagicha jadval chizing. Kataklarga sabzavot va meva rasmini chizing.

| | Dumaloq | Uzunchoq | Qizil | Yashil |
|---|---|---|---|---|
| Sabzavot | | | | |
| Meva | | | | |

Quruq mevalar ______, ______, ______, ______.
______, ______ nordon, ______, ______, ______ shirin.

# 42-dars. TANA A'ZOLARI




Inson tana a'zolari bosh, bo'yin, yelka, qo'l, bel va oyoqdan tashkil topgan. Inson boshi bilan o'ylaydi, qo'li bilan ushlaydi, oyog'i bilan yuradi.

Bosh, bo'yin, yelka, qo'l, bel.




Insonda ikkita qo'l bor. O'ng va chap qo'l. Har bir qo'lda beshtadan barmoq bo'ladi. Barmoqlarda tirnoqlar joylashgan.

Insonda _____ ta qo'l, _____ ta barmoq bor. Tirnoqlar _____ da joylashgan.

**Tirnoqlarni o'stirib yurmang!**

## *43-dars.* BOSH VA UNDAGI A'ZOLAR



Lab



Ko'z



Tish



Bosh



Til



Quloq



Burun

Inson boshida ko'z, og'iz, lab, til, tish, burun, quloq bo'ladi. Ko'z ko'radi, burun hidlaydi, quloq eshitadi, tish tishlaydi.

Ko'z _____, burun _____, quloq _____, tish _____.

Boshda qanday a'zolar bor? Juft a'zolar qaysilar?

Ko'zni asrash uchun televizorni yaqindan ko'rmang! Vaqtida uxlang! Ko'zingizni iflos qo'l bilan ushlamang!

**Kompyuter qarshisida uzoq o'tirmang!**

# SOG‘LOM BO‘LISH UCHUN



Toza yursa ... / ... / ... bo‘ladi (sog‘lom, kuchli, aqlli).

Iflos yursa ... / ... / ... bo‘ladi (kasal, ikkichi, yomon xulqli).

Inson toza yursa ____ bo‘ladi. Iflos yursa ____ bo‘ladi.

Tishingizni bir kunda necha marta yuvasiz?
Bir kunda necha soat uxlaysiz? Necha mahal ovqatlanasiz?

**Sog‘ tanda – sog‘lom aql.**

# *44-dars.* KIYIMLAR






Palto  Jemper va yubka  Futbolka  Ko‘ylak






Sarafan  Shim  Qizlar etigi  O‘g‘il bolalar etigi





Tufli  Yozgi tufli  Krossovka

Palto, jemper, ko‘ylak, sarafan, tufli, krossovka.

Sovuqda ____, _____, _____ kiyiladi.
Issiqda ____, _____, _____ kiyiladi.

**Kiyimlaringizni ozoda tuting!**
**O‘zgalar kiyimini kiymang!**

## 45-dars. BAHOR KELDI



Bahorda qorlar eriydi. Kunlar iliq bo‘ladi.



Qaldirg‘ochlar uchib keladi, boychechaklar ochiladi.

Bahorda ob-havo qanday bo‘ladi?

Bahorda ______ eriydi, kunlar ______, ________ uchib keladi, _________ ochiladi.

# BAHORGI ISHLAR

Biz bahorda maktab hovlisida ishladik. Mehnat o‘qituvchimiz Nabi aka bizga ko‘chat ekishni o‘rgatdi. Ali va Oysha daraxtlarni oqladi, Sobir bilan Qodir ekilgan ko‘chat-larga suv quydi.



Biz maktab hovlisida ____.
Ali va Oysha ________.
Sobir bilan Qodir _____.

Bolalar maktab hovlisida nima qilishdi?



Ko‘chat ekish uchun:
1. Yer chopiladi.
2. Chuqur qaziladi.
3. Chuqurga suv quyiladi.
4. Ko‘chat tik holda qo‘-yilib, tuproq tortiladi.

Ko‘chat ekish uchun nima qilinadi?

_____ chopiladi, ______ qaziladi, ____ suv quyiladi.

**Ekinlarni payhon qilmang, o‘zgalar mehnatini qadrlang!**

# *46-dars.* O‘SIMLIKLAR




Gullar: _____, _____, _____. Butalar: _____, _____, _____.



Olma — O‘rik — Shaftoli

**Mevali daraxtlar**



Sada — Majnuntol — Archa — Palma

**Manzarali daraxtlar**

Mevali va manzarali daraxtlarni ko‘rsating.

Maktab hovlisidagi daraxtlar nomini yozing.

# *47-dars.* QUSHLAR



Musicha



Qaldirg'och



Qarg'a



Chumchuq



Boyo'g'li



Zag'izg'on



Bulbul



To'ti



Kanareyka

Chumchuq, qaldirg'och, qarg'a, kaptar, zag'izg'on.

1. Qushlar qayerlarda yashaydi?
2. Qushlar nimalar bilan oziqlanadi?
3. Maktab hovlisida qushlar uchun in qurganmisiz?

**Qushlar bizning do'stimiz.**

# QUSHLARNI ASRANG



Qushlar bizga do'st. Ular zararli hasharotlarni yeydi. Qushlar inlarda yashaydilar. Maktabimiz hovlisidagi daraxtlarda zag'izg'on, chumchuq va to'tilarning ini bor. Biz ularga don, suv beramiz. Jonli burchakda kanareyka boqamiz.





Ali qushlarni yaxshi ko'radi. Shuning uchun u ularga in yasadi. Qushlar kuzda issiq o'lkalarga uchib ketadi. Bahorda yana Ali yasagan inga qaytib kelishadi.

1. Qushlarning tabiatga foydasi nimada?
2. Qushlar qayerda yashaydi?



Qushlar ________ da ________ ga uchib ketadi, ______ da _____ ga uchib keladi.

# *48-dars.* HASHAROTLAR

Tabiatda har xil hasharotlar bor. Ular ikki xil bo'-ladi: foydali va zararli. Foydali hasharotlar o'simliklarni changlatadi, asalari asal yig'adi. Zararli hasharotlar insonlarni chaqadi, kasallik tashiydi.


Kapalak


Ninachi


Chigirtka


Buzoqboshi


Asalari


Sariq ari


O'rgimchak


Xonqizi


Suvarak


Chumoli


Pashsha


Chivin

Kapalak, ninachi, chigirtka, chumoli, chivin, asalari.

Hasharotlar ikki xil bo'ladi: ___________, ___________.

Maktab hovlisida ko'p uchraydigan hasharot rasmini chizing.

**Hasharotlar chaqishidan ehtiyot bo'ling!**

## MEHNATKASH ASALARILAR

Tongda ikki asalari asal yig'ish uchun gulzorga chiqdi. Lolaning yoniga kelib, undan so'radi:



– Lola, lola, ber asal.

Lola dedi:

– Kam yog'ib yomg'ir, bo'ldim men kasal. Xafa bo'lma asalari, berolmayman asal.



Qaytdi ular ortiga. Keldi Eman yoniga.

– Xohlagandik ko'p asal, Lolajon bo'pti kasal.

Eman dedi:

– Boring, qir-gulzor osha, sizni kutar binafsha.



Binafsha dedi:

– Bormisiz o'rtoqlarim, asaldan charchadi yaproqlarim. Oling, to'lsin chelaklar, sizga yaxshi tilaklar.



Erishib maqsadiga, qaytdi ular iniga!

Yaxshi niyat va mehnat,
Keltiradi ko'p rohat!

# 49-dars. IPAK QURTI




 bu ipak qurti. U  yeydi. U alohida xonalarda boqilib, so‘ngra  ga aylanadi. Pilladan  olinadi. Ip gazlamalardan mato to‘qiladi. Matodan kiyimlar tikiladi.

Ipak qurti qayerda boqiladi va u nima yeydi? Undan nimalar olinadi?

Ipak qurti ________da boqiladi va u ______ yeydi. Undan ______, ______, ______, ______ olinadi.

Matodan yana nimalar tikilishini ayting va yozing.

# *50-dars.* BALIQLAR

Baliqlar suvda yashaydi. Ular har xil bo'ladi. Baliqlar suv o'tlari bilan oziqlanadi. Kit – eng katta baliq. Akula ham katta baliq bo'lib, u yirtqichdir. Baliqlar suvda nafas oladi. Quruqlikda yashay olmaydi. Ularning go'shti juda foydali.



Okun



Mintay



Oq amur



Cho'rtan baliq



Laqqa baliq



Karp



Delfin



Akula



Kit

Akula, kit, delfin, cho'rtan baliq, laqqa baliq.

Eng katta baliq qaysi? Yirtqich baliq qaysi? Baliqlar qayerda yashaydi?

# 51-dars. BAYRAMLAR

Bugun darsda o'qituvchi o'quvchilardan ona-Vatan haqida so'radi. O'quvchilar O'zbekistonning tabiati va bayramlari xususida so'zlashdi. O'quvchilardan Ali yurtimizda nishonlanadigan bayramlarni quyidagicha sanab berdi.



1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni.




8-dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun.



31-dekabr – Yangi yil.

Ali Yangi yil bayrami haqida ko'proq gapirdi. Chunki u bu bayramni yaxshi ko'radi. Har yili archa bayramida she'r aytib, Qorbobodan sovg'a olishini aytdi. Bu yilgi archa bayramida ingliz tilida she'r aytib, Qorbobodan kompyuter olganini aytib, o'rtoqlariga ham ingliz tilini o'rganishni taklif qildi.



Ali akasi Nabining harbiy xizmatda askarligini aytdi. Bu yil uning akasi harbiy qasamyod qabul qilibdi. Oilasi bilan uni tabriklagani borishibdi.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni.






U 8-mart – Onalar bayramining oilasida quvonch bilan o'tkazilishini aytdi. Har yili Ali va singlisi onasiga sovg'a berishadi.

8-mart – Onalar bayrami.



21-mart – «Navro'z» bayrami.

«Navro'z» – bahor bayrami.

Bu bayramda sumalak, ko'k somsa, halim kabi milliy taomlar tayyorlanadi. «Navro'z»da biz ham maktab hovlisini tozaladik, ko'chat ekib, daraxtlarni oqladik. Maktabda katta konsert bo'ldi.



9-may – Xotira va Qadrlash kuni.



1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni.

O‘qituvchimiz Alining bayramlar haqidagi hikoyasini tinglab, unga a’lo baho qo‘ydi.

Bayramlarni ketma-ketlikda yozing.

## 52-dars. TOSHKENT – O‘ZBEKISTONNING POYTAXTI

Toshkent juda qadimiy va katta shahar. Unda ko‘p qavatli binolar, istirohat bog‘lari, keng va yorug‘ ko‘chalar, teatrlar, sirk, hayvonot bog‘i bor.



Bugungi Toshkent.



Bu Senat binosi.
U yerda katta-katta
yig‘ilishlar bo‘ladi.



Bu Mustaqillik maydoni.
U yerda bayram
tantanalari o‘tkaziladi.

Toshkent _____ poytaxti. Katta yig‘ilishlar ________da, Mustaqillk maydonida _________ o‘tkaziladi.

# 53-dars. SHAHAR

Ko'p qavatli binolar, keng va yorug' ko'chalar, katta-katta ishxonalar, ko'plab ta'lim maskanlari, turli bozor va istirohat bog'lari, vokzal, aeroport bor joylar shahar deyiladi.



Zamonaviy yo'llar, ko'priklar.



Vokzal.



Favvoralar.



Istirohat bog'i.

Ko'prik va yo'llar, istirohat bog'i, vokzal, favvoralar.

Shahar deb nimaga aytiladi? Shaharda nimalar bor?

Shaharda ________ yo'llar, ________ ko'chalar, ko'plab ________, turli ________ va ________ bo'ladi.

## 54-dars. QISHLOQ

Tog‘lari, qir-adirlari, keng dalalari, yaylovlari, so‘lim ko‘chalari, zamonaviy ta’lim va tibbiy maskanlari, shinam binolari, bozorlari, ravon yo‘llari bor joy qishloq deyiladi.



Qishloq ko‘chasi va uylari.



Qishloq maktabi.



Qir-adir.



Yaylov.



Dala.



Tibbiy maskan.



Dam olish joyi.



Qishloq yo‘li.

Qishloq deb nimaga aytiladi? U yerda nimalar bor?

## *55-dars.* DEHQON BOZORI

Shahar va qishloqlarda turli bozorlar bor. Ulardan biri dehqon bozori. Dehqon bozorida mevalar, sabzavotlar, poliz ekinlari, non mahsulotlari, ko‘katlar, ko‘chatlar, gullar sotiladi. Bozorda sotuvchi va xaridorlar bo‘ladi. Shuningdek, omborxona va quyidagi jihozlar bor: rastalar, tarozilar, qutilar, aravalar.









Dehqon bozorida kimlar bo‘ladi?

Dehqon bozorida ____, ____, _____, ____ sotiladi.

Siz yashaydigan joydagi dehqon bozorini tasvirlab bering.

# 56-dars. TRANSPORTLAR

Shahar va qishloqlarda turli transportlar qatnaydi. Ular ikki xil bo'ladi: odam tashuvchi va yuk tashuvchi. Odam tashuvchi transportga: samolyot, vertolyot, kema, avtobus, tramvay, metro va yengil mashinalar kiradi. Yuk tashuvchi transportga: traktor, yuk mashinalari va boshqalar kiradi. Transportlar insonlarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qiladi.



Samolyot



Kema



Vertolyot



Metro



Tramvay



Avtobus



Yengil mashina



Yuk mashinasi



Traktor

Samolyot, metro, kema, traktor, avtobus, tramvay.

Odam tashuvchi mashinalar: ____, ____, ____, ____.
Yuk tashuvchi mashinalar: ____, ____, ____, ____.

## 57-dars. TRANSPORTGA CHIQISH-TUSHISH



Transportga chiqayotganda uning orqa eshigidan chiqiladi.

Transportga chiqish.

Transportdan tushayotganda uning old eshigidan tushiladi.



Transportdan tushish.

Transportning old va orqa eshigini ko'rsating.

Transportga qaysi eshigidan chiqiladi va tushiladi?

### Transportda yurish qoidalari

1. Kattalarga joy bering.
2. Qattiq gapirmang va kulmang.
3. Muzqaymoq va boshqa narsalar yemang.
4. Transportga iflos kiyimlar bilan chiqmang.
5. Yo'lovchilarga qo'pollik qilmang, yo'l haqini o'z vaqtida to'lang.
6. Begonalar bilan gaplashmang. Ogoh bo'ling.

# 58-dars. SVETOFOR

Svetofor odamlar va transportlarning yo'ldagi harakatini tartibga soladi. Uning uch rangi bor: qizil, sariq va yashil. Qizil rang harakatni to'xtatadi, sariq rang harakatga tayyorlaydi, yashil rang harakatga ruxsat beradi. Svetoforlar chorrahalarga qo'yiladi.



Chorraha.







Piyodalar o'tish joyi.

Chorraha, piyodalar o'tish joyi, svetoforni ko'rsating.

rang _____, rang _____, rang _____ bildiradi.

# *59-dars.* KASBLAR

Maktabimizga mahalla oqsoqollari mehmonga keldi. Ular biz bilan suhbatlashdi. Yo‘ldosh bobo bizdan kasblar haqida so‘radi. Biz bilgan kasblarimizni birma-bir tasvirlab berdik.




O‘qituvchi.



Tarbiyachi.

O‘qituvchi maktabda, tarbiyachi bog‘chada ishlaydi. Ular bolalarni o‘qitadi va tarbiyalaydi.



Shifokor.



Militsioner.



Askar.

Shifokor odamlarni davolaydi, militsioner va askar odamlarni himoyalaydi hamda qo‘riqlaydi.



Rassom.



Quruvchi.



Duradgor.

Rassom binolar rasmini chizadi, quruvchi uyni quradi, duradgor uyning eshik va derazalarini yasaydi.



Oshpaz.



Tikuvchi.



Sartarosh.

Oshpaz ovqat tayyorlaydi, tikuvchi tikadi. Sartarosh esa sochlarni to‘g‘rilaydi.

Yo‘ldosh bobo so‘radi: – Kasblar nima uchun kerak?
Sobir javob berdi: – O‘zi, Vatani va oilasi uchun.
– Kasb egallash uchun nima qilish kerak?
– Yaxshi o‘qish, odobli bo‘lish va mehnat qilish kerak.

Yo'ldosh bobo yana so'radi:

– Katta bo'lganda kim bo'lmoqchisiz?

Ali javob berdi:

– Men katta bo'lsam, o't o'chiruvchi bo'lmoqchiman.

– Nima uchun o't o'chiruvchi bo'lmoqchisan?

Ali o't o'chiruvchi kasbi haqida so'zladi:



O't o'chiruvchi

– Bu kasb egalari insonlar hayotini, uylarini va boshqa bino va joylarni yong'indan asraydi.

Yong'in chiqqanda ular tez yordamga kelib, olovni o'chiradi.

O't o'chiruvchilar sog'lom, baquvvat, chaqqon va balandlikdan qo'rqmaydigan bo'lishadi. Shuning uchun men katta bo'lsam, o't o'chiruvchi bo'lmoqchiman.

Yo'ldosh bobo bizdan xursand bo'ldi.

? Qanday kasblarni bilasiz? Siz kim bo'lmoqchisiz?

Shifokor ______, o'qituvchi ______, quruvchi ______, sartarosh ______, o't o'chiruvchi ______, oshpaz ______.

! **Vaqtingizni bekor o'tkazmang, kitob o'qing! O'zingiz qiziqqan kasb egalari bilan ko'p suhbatlashing!**

# *60-dars.* ELEKTR JIHOZLARI

Uyimizda elektr jihozlari bor. Ular elektr toki bilan ishlaydi. Masalan, muzlatkich, dazmol, changyutkich, konditsioner, televizor, elektr choynak, isitgich, kir yuvish mashinasi.



1 Televizor



2 Kir yuvish mashinasi



3 Muzlatkich



4 Isitgich



5 Changyutkich



6 Konditsioner



7 Elektr choynak



8 Dazmol

Bu jihozlar ro'z-g'orda juda zarur. Ularning barchasini o'z vazifasi bor.

4 – ovqat isitadi; 5 – uy tozalaydi; 6 – havoni sovutadi va isitadi.

? 1, 2, 3, 7, 8 lar nima vazifa bajaradi?

! **Elektr jihozlari o'yinchoq emas!**

# *61-dars.* KOMPYUTER

Kompyuter – bu zamonaviy jihoz. U bilan yozuv, hisob va rasmli ishlar tez va chiroyli bajariladi. Kompyuterdan turli kasb egalari foydalanadi. Bizning maktabda kompyuter xonasi bor. Biz u yerda turli topshirqlarni bajaramiz.



Noutbuk



Kompyuter

Noutbuk juda qulay bo'lib, u kompyuterning vazifasini bajaradi. Uni hamma joyda olib yurish mumkin.

Kompyuter qanday jihoz? U qanday ishlarni bajaradi? Noutbuk nima? U qanday vazifalarni bajaradi?

Kompyuter _______, _______, _______ ishlarini bajaradi. Noutbuk qulay ________.

**Kompyuterda ko'p ishlash sog'liqqa zarar!**

## 62-dars. YOZ KELDI

Orziqib kutilgan yoz keldi. Yoz faslida hamma yoq ko‘m-ko‘k bo‘lib, mevalar g‘arq pishadi. Hamma salqin joylarga, tog‘larga oshiqadi. Yozda dam olish joylari odamlar bilan to‘ladi. U yerda hamma cho‘miladi, ko‘llarda suzadi, oftobda toblanadi.





1-«A» sinf o‘quvchilari yoz tabiatini suratga olishdi. Ularning suratlarida yam-yashil qir-adirlar, baland tog‘lar, oqar suvlar aks etgan.

Rasmdagi yoz tabiatini tasvirlab bering.

## 63-dars. YOZ NE'MATLARI



Yoz pishiqchilik fasli. Dehqon bozorlari poliz ekinlari, mevalar, sabzavotlar bilan to‘ladi. Odamlar yozda meva hamda sabzavotlardan qishga g‘amlaydilar. Shunda yozgi mevalar qishda ham dasturxonda bo‘ladi.

Yozda qanday mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlari pishadi?

Yozda mevalardan: ____, ____, ____, sabzavotlardan ____, ____, ____, poliz ekinlaridan ____, ____ pishadi.

Yoz fasliga oid rasmlar chizing, hikoya tuzing.

## *64-dars.* YOZGI OROMGOHDA

1-«A» sinf o'quvchilari yozgi ta'tilda bolalar oromgohiga dam olgani borishdi. Oromgoh tog' yonbag'rida joylashgan. Bolalar bu yerda tog'ga chiqishdi, anhorda cho'milib, sport o'yinlari o'ynashdi. Har kuni kechki payt konsert va qiziqarli tomoshalar ko'rdilar. Ular oromgohda juda ko'p do'stlar orttirib, ko'ngilli dam olishdi.









**Katta, tezoqar va loyqa suvlarda cho'milmang!**
**Zinhor cho'milishga yolg'iz bormang!**

# 65-dars. KUNDALIK YURITISH



Ali va Omina kundalik yuritishadi. Ular kundalikka kunlik voqealarni, ko'rgan, eshitgan narsalari haqidagi taassurotlarini yozadilar.

Ali kundaligining bir sahifasida quyidagilar yozilgan:

«Bugun 1-iyun – Bolalar bayrami. Erta tongdan dadam bizni uyg'otdi. Nonushtadan so'ng meni do'konga olib bordi. U yerda menga turli o'yinchoq va ertak kitoblar olib berdi. Dadam menga:



– O'g'lim, yaxshi o'qib, odobli bo'lganing uchun bu sovg'alar senga, dedi. Men dadamga rahmat aytib, 2-sinfda ham faqat a'lo baholarga o'qiyman deb va'da berdim».

## Kundalik yuritish qoidalari:

1. Toza va ozoda tuting.
2. Qisqa va aniq yozing.
3. Alohida voqealarni yozing.
4. O'zgalarning kundaligini ruxsatsiz o'qimang.
5. Keraksiz rasmlarni yopishtirmang.

? Siz ham kundalik yuritasizmi?

! Kundalikka sana, voqeaning joyi, odamlarning ismlarini aniq yozing!

# 66-dars. HIKOYA TUZISHNI O‘RGANAMIZ

Hikoyani quyidagicha boshlang va yakunlang.




Oysha, Bonu, Omina yozgi ta’tilda oromgohda dam olishdi. Ular u yerda _____

________________________________

________________________________

________________________________

________________________________

Yozgi ta’til soz o‘tdi.

Qish kunlaridan biri. Ali, Salim va Olim qishki ta’tilda bolalar maydonchasiga chiqishdi. Ular ____________

________________________________

________________________________

________________________________

Ular uyga xursand qaytishdi.





Bahor kunlarining birida Olmaxon va Sichqoncha osmonda kamalakni ko‘rib qolishdi. Kamalakda _____

________________________________

________________________________

________________________________

Kamalak ortidan quyosh ularga kulib boqdi.

## *67-dars.* TAKRORLASH

Rasmlar va so‘zlarga oid umumlashtiruvchi so‘zni toping va yozing.

| Rasmlar va so‘zlar | Umumlashtiruvchi so‘z |
| --- | --- |
|    | ____________________ |
| Bobo, buvi, ota, ona, aka, uka, singil | ____________________ |
|    | ____________________ |
| Bahor, yoz, kuz, qish | ____________________ |
|     | ____________________ |
| Yanvar, fevral, mart, aprel . . . | ____________________ |
| Dushanba, seshanba, chorshanba . . . | ____________________ |

Rasmlardagi tabiat hodisalari haqida so'zlab bering.








Ob-havo belgilari nomini yozing.

 ____________

 ____________

 ____________

 ____________

# *68-dars.* MUSTAQIL ISHLASH

| | |
|---|---|
| Kun tartibini sanab bering.   | ______da uyqudan turish.<br>______da ______________<br>______da ______________ |
| Yuvinish qoidalarini sanab bering.  | 1. Qo'lni sovunlab yuvish.<br>2. ______________<br>3. ______________<br>4. ______________ |
| Kuzgi ishlarni sanab bering.  | 1. ______________<br>2. ______________<br>3. ______________<br>4. ______________ |
| Bahorgi ishlarni sanab bering.  | 1. ______________<br>2. ______________<br>3. ______________<br>4. ______________ |
| Navbatchi ishlarini sanab bering.  | 1. ______________<br>2. ______________<br>3. ______________<br>4. ______________ |

Hayot xavfsizligi va gigiyena qoidalarini aytib bering.



Qishda:

Ko'chada va yo'lda:





Ovqatlanganda:

Kiyinganda:



## Siz buni bilishingiz shart!

| | | |
|---|---|---|
| 1 | O'zingiz haqingizda | Ismingiz, familiyangiz, oilangiz, manzilingiz, o'qiydigan sinfingiz. |
| 2 | Maktabingiz haqida | Manzili, binolar soni, nomi, direktorning, o'qituvchilarning, tarbiyachining, oshpazning, ... larning ismlari. |
| 3 | Tabiat haqida | To'rt faslning nomi, oylari, ob-havo o'zgarishlari, belgilari, insonlar kiyinishi va ularning mehnati. Fasllarda o'simliklar va hayvonlar hayoti, ularning nomlari. Ularga g'amxo'rlik qilish. |
| 4 | Siz foydalanadigan narsalar haqida | O'quv qurollari, kiyimlar, yuvinish vositalari, transportlar, o'yinchoqlar, idishlar, yotoqxona va elektr jihozlari nomlari. Ulardan foydalanish qoidalari. |
| 5 | Siz rioya qiladigan qoidalar haqida | Darsga kech qolmaslik, ozoda yurish, berilgan vazifalarni vaqtida bajarish, yolg'on gapirmaslik, maktab va o'z jihozlaringizni saqlash, odobli bo'lish, ona-Vatanni sevish. |
| 6 | Hayot xavfsizligi haqida | Ko'chada yurishda, atrofdagilar bilan muomalada, dorilarni iste'mol qilishda, jihozlardan foydalanishda ehtiyot bo'lish. |

## MUNDARIJA


*1-dars.* Assalomu alaykum! ........ 5
*2-dars.* Turing. O'tiring. Keling. Kiring. Chiqing ........ 6–8
*3-dars.* Oling. Bering. Qo'ying. Ko'rsating ........ 9–11
*4-dars.* O'qituvchi. Tarbiyachi. O'quvchi ........ 13
*5-dars.* Kun tartibi. Kunning birinchi yarmi ........ 14
*6-dars.* Kunning ikkinchi yarmi ........ 17
*7-dars.* O'quv qurollari. Mening. Sening. Uning ........ 20–21
*8-dars.* Bu kim? Bu nima? Oila ........ 22–23
*9-dars.* Ism ........ 24
*10-dars.* Familiya ........ 25
*11-dars.* Maktab hovlisi ........ 27
*12-dars.* Sinf xonalari ........ 28
*13-dars.* Yotoqxona ........ 33
*14-dars.* Yuvinish xonasi. Yuvinish qoidalari ........ 34–35
*15-dars.* Fasllar ........ 36
*16-dars.* Yil fasllari va oylari ........ 37
*17-dars.* Hafta kunlari ........ 38
*18-dars.* Kuz fasli ........ 39
*19-dars.* Kuzgi hosil bayrami ........ 40
*20-dars.* Issiq. Sovuq ........ 41
*21-dars.* Osmon ........ 43
*22-dars.* Ob-havo belgilari ........ 44
*23-dars.* Ob-havoning o'zgarishi ........ 45

*24-dars.* Oziq-ovqatlar ....................................... 46
*25-dars.* Idishlar ....................................... 47
*26-dars.* Taomlar. Ovqatlanish qoidalari ....................... 48–49
*27-dars.* Ta'm. Hid ....................................... 50–51
*28-dars.* Ranglar ....................................... 52
*29-dars.* Shakllar ....................................... 53
*30-dars.* Qish ....................................... 54
*31-dars.* Qishki o'yinlar ....................................... 55
*32-dars.* Qishda ehtiyot bo'ling! ....................................... 56
*33-dars.* Qishki kiyimlar ....................................... 57
*34-dars.* O'quvchining o'n qoidasi. Navbatchi ................ 58–59
*35-dars.* Uy hayvonlari. Hayvonlarga g'amxo'rlik ........... 60–61
*36-dars.* Yovvoyi hayvonlar.
Yovvoyi hayvonlar hayoti ....................................... 62–63
*37-dars.* O'yinchoqlar.
O'yinchoqlar – bizning do'stimiz ....................... 64–65
*38-dars.* Mevalar ....................................... 66
*39-dars.* Sabzavotlar ....................................... 67
*40-dars.* Quruq mevalar ....................................... 68
*41-dars.* Takrorlash ....................................... 69
*42-dars.* Tana a'zolari ....................................... 70
*43-dars.* Bosh va undagi a'zolar.
Sog'lom bo'lish uchun ....................................... 71–72
*44-dars.* Kiyimlar ....................................... 73
*45-dars.* Bahor keldi. Bahorgi ishlar ....................... 74–75
*46-dars.* O'simliklar ....................................... 76
*47-dars.* Qushlar. Qushlarni asrang ....................... 78–79
*48-dars.* Hasharotlar. Mehnatkash asalarilar ................. 80–81

*49-dars.* Ipak qurti ........ 82
*50-dars.* Baliqlar ........ 83
*51-dars.* Bayramlar ........ 84
*52-dars.* Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti ........ 87
*53-dars.* Shahar ........ 88
*54-dars.* Qishloq ........ 89
*55-dars.* Dehqon bozori ........ 90
*56-dars.* Transportlar ........ 91
*57-dars.* Transportga chiqish-tushish ........ 92
*58-dars.* Svetofor ........ 93
*59-dars.* Kasblar ........ 94
*60-dars.* Elektr jihozlari ........ 97
*61-dars.* Kompyuter ........ 98
*62-dars.* Yoz keldi ........ 99
*63-dars.* Yoz ne’matlari ........ 100
*64-dars.* Yozgi oromgohda ........ 101
*65-dars.* Kundalik yuritish ........ 102
*66-dars.* Hikoya tuzishni o‘rganamiz ........ 103
*67-dars.* Takrorlash ........ 104
*68-dars.* Mustaqil ishlash ........ 106

1200 сум.

Q53 **QODIROVA F. ATROFIMIZDAGI OLAM.** Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 1-sinfi uchun darslik. (2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. –112 b.

UO'K 502/504-053.4
KBK 74.262.0

ISBN 978–9943–16–141–2

FERUZAXON QODIROVA

# ATROFIMIZDAGI OLAM

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining
1-sinfi uchun darslik

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhih *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 1-iyulda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 84x108$^{1}/_{16}$.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 11,76.
Nashr tabog'i 7,0. 507 nusxa. Buyurtma № 23.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 17–2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**Bepul. Maktab jamg'armasiga kiritilgan.**